

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN SANOAT KORXONALARINI  
KREDITLASH SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI****ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ  
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ****ISSUES OF IMPROVING THE CREDIT POLICY OF INDUSTRIAL  
ENTERPRISES BY COMMERCIAL BANKS**

Olimova N.X

FDU, i.f.n., dots

Sotvoldiyev N.N

*O'zbekiston Respublikasi BMA, magistrant*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mamlakatimizda sanoat korxonalarining rivojlanishi, tijorat banklari tomonidan ularni kreditlash amaliyoti tahlil qilingan. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi industrial tarmoqlarni shakllantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularni qayta jihozlash, mahsulotlar eksportini oshirish bilan bog'liq ishlar bevosita investitsion jarayon bilan bog'liqligi o'rganilib, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishda korxonaning strategik rivojlanish maqsadlarida innovatsion faoliyatga oid rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Tadbirkorlik sub'yektlari aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichining me'yoriy darajasi mavjud emasligi ta'kidlanadi va shu sababli, ishda ushbu ko'rsatkichni baholash uchun moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi.*

**Kalit so'zlar:** *korxonalar, sanoat, kredit, tijorat banki, siyosat, strategiya, innovatsiya, boshqaruv, biznes, tadbirkorlik.*

**Аннотация.** *В данной статье проанализировано развитие промышленных предприятий в нашей стране, практика их кредитования коммерческими банками. Изучено, что работа, связанная с развитием промышленного производства в стране, формированием новых отраслей промышленности, модернизацией и перевооружением промышленных предприятий, увеличением экспорта продукции, непосредственно связана с инвестиционным процессом, показана целесообразность формирования направлений развития и разработки соответствующих мер инновационной деятельности в целях стратегического развития предприятия в целях повышения эффективности инновационного управления на промышленных предприятиях. Подчеркивается, что нормативного уровня показателя рентабельности активов субъектов хозяйствования не существует, и поэтому для оценки этого показателя в работе используется метод сравнительного анализа финансового анализа.*

**Ключевые слова:** *предприятие, промышленность, кредит, коммерческий банкинг, политика, стратегия, инновации, менеджмент, бизнес, предпринимательство.*

**Annotation:** *This article analyzes the development of industrial enterprises in our country, the practice of their lending by commercial banks. It is studied that the work related to the development of industrial production in the country, the formation of new industries, modernization and re-equipment of industrial enterprises, the increase in exports of products is directly related to the investment process, the expediency of forming development directions and developing appropriate measures of innovation activity for the strategic development of the enterprise in order to improve the efficiency of innovation management at industrial enterprises is shown. It is emphasized that there is no normative level of the return on assets of business entities, and therefore the method of comparative analysis of financial analysis is used to assess this indicator.*

**Key words:** *enterprise, industry, credit, commercial banking, policy, strategy, innovation, management, business, entrepreneurship.*

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishning usutuvor yo'nalishlarini aniqlab olish kabi muhim masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni [2]da belgilab berildi. Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'linmasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o'tildi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Dastlabki yo'nalish O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir.


Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'linmasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o'tildi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv maqsadlari daraxtini shakllantirish yuqori samaradorlikka erishish bilan bir qatorda, korxonaning innovatsion rivojlanishining barqarorligini ta'minlash uchun zamin yaratadi. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish, korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligi ko'rsatkichlari ta'sirida o'zgarishi mumkin bo'ladi, ya'ni sanoat korxonasida innovatsion boshqaruv to'g'ri tashkil etilgan bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish

jarayonlari texnik va yexnologik jihatdan zamon talablariga qanchalik mos bo'lgani sari ishlab chiqarish hajmi shunchalik yuqori sur'atda ortadi.

Asosiy e'tiborni mamlakatimizda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi mexanizmini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishga qaratish maqsadga muvofiq. Bunda hududiy tamoyil asosida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish zarur. Shuningdek, viloyatlar kesimida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, ularni global darajadagi raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlarini muntazam ravishda takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi. Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarini monitoring qilish hududiy innovatsion sanoat markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, sanoat korxonalarining uzoq muddatli davr uchun mo'ljallangan innovatsion rivojlanish dasturlari va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari hududiy sanoat korxonalarini rivojlantirish markazlari tomonidan o'rganilib, ularni moliyalashtirish va tegishli imtiyozlardan foydalanish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi.

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, banklarning respublikamiz hududlarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini kreditlash siyosatini takomillashtirish borasida bir qator muammolar mavjud. Ularda tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy holatini yomonlashishiga olib kelishi bilan birga, ularning rentabellik darajasini past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, ularning resurs jalb qilish imkoniyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.




**1-rasm. «Baraka Servis» MChJda tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'i [5], foizda**

1-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, "Baraka Servis" MChJda 2018-2022 yillarda tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'i oshib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Respublikamizda uzoq davr mobaynida inflyatsiya darajasining va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini yuqori bo'lganligi korxonalarda mahsulotlar tannarxining oshib ketishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotning asosiy qismida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizda 2018-2022 yillarda inflyatsiya va devalvatsiya darajalari yuqori bo'lgan. Buning natijasida korxonalar tomonidan sotib olinadigan xom

ashyo va materiallarning baholarini o'sishi yuz bergan. Kichik biznes sub'yektlarida aktivlarning rentabellik darajasining past ekanligi ularning kreditlardan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladigan omillardan biri hisoblanadi. Jahon banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga ko'ra, korxonalar aktivlarining rentabelligi sof foydani jami aktivlarga bo'lish va olingan natijani 100 foizga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Shunisi xarakterliki, korxonalar aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichining me'yoriy darajasi mavjud emas va ushbu ko'rsatkichni baholash uchun moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi. Bunda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichini joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi yoki korxonalar aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichi boshqa korxonalarining shu ko'rsatkichi bilan taqqoslanadi.

Aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi korxonaning moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich bo'lishi bilan birga, uning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, sof foyda korxonalarining mablag'lar jalb qilish imkoniyatini oshirishda va ularning faoliyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi; *ikkinchidan*, aktivlarning barqaror o'sish sur'atini ta'minlash korxonalar faoliyatini kengaytirish va modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Quyidagi 2-rasm ma'lumotlari orqali aniq olingan korxonalar misolida aktivlarning rentabelligini o'zgarishini baholaymiz.



**2-rasm. “Baraka Servis” MChJda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichining darajasi [5], foizda**


2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, «Baraka Servis» MChJda 2018-2022 yillarda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, korxonaning kredit to'loviga layoqatliligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. «Baraka Servis»da aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. «Baraka Servis» MChJda tahlil qilingan davr mobaynida aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichini pasayganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- 2018-2022 yillarda MChJ sof foydasi miqdorini kamayib borganligi;
- tahlil qilingan davr mobaynida MChJ joriy majburiyatlari miqdorining ortib borganligi;
- 2018-2022 yillarda MChJda mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmida tannarx salmog'ining oshib borganligi.

Tahlil jarayonida kichik biznes sub'yektlarining joriy likvidlilik darajasini past ekanligi kuzatildi. Xalqaro amaliyotda korxonalarining (kompaniyalar, korporatsiyalar) joriy likvidlilikini baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab

chiqilgan joriy likvidlilik koeffitsiyentidan foydalaniladi. Mazkur metodikaga ko'ra, joriy likvidlilik koeffitsiyenti korxonaning joriy aktivlarini joriy majburiyatlari bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va ushbu ko'rsatkichning minimal me'yoriy darajasi 2 qilib belgilangan. Buning ma'nosi shundaki, korxonada likvidli bo'lishi uchun uning joriy aktivlari summasi joriy passivlarining summasidan kamida ikki marta ko'p bo'lishi kerak.

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rish mumkinki, birinchidan, 2018-2022 yillarda «XON» KKning joriy likvidlilik koeffitsiyenti ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan past bo'lgan; ikkinchidan, 2018-2020 yillarda joriy likvidlilik koeffitsiyentining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan.



3-rasm. «XON» KKning joriy likvidlilik koeffitsiyenti [6]

Kichik biznes sub'yektlarida tezkor likvidlilik koeffitsiyenti, moliyaviy marja, mutlaq likvidlilik koeffitsiyentlari bo'yicha me'yoriy talablar bajarilmayotganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- korxonalarda tezkor likvidlilik koeffitsiyenti bo'yicha me'yoriy talabning bajarilmaganligi qisqa muddatli investitsiyalarni mavjud bo'lmaganligi bilan va qisqa muddatli investitsiyalarni yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgani holda, pul mablag'lari miqdorini keskin kamayganligi bilan izohlanadi;

- korxonalarda moliyaviy marja koeffitsiyenti bo'yicha me'yoriy talabning bajarilmaganligi korxonaning kreditlar va qarz mablag'lari jalb qilish amaliyotining takomillashmaganligi bilan izohlanadi;

- korxonalarda mutlaq likvidlilik bo'yicha me'yoriy talabning bajarilmaganligi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan pul mablag'lari miqdorining keskin kamayganligi va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi;

- korxonalarda likvidlilik koeffitsiyentlari bo'yicha me'yoriy talablarning bajarilmasligi ularning investitsion xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Kichik biznes sub'yektlarining importini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar ham o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, „..Keyingi 10 yilda Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli vazirlik va idoralar tomonidan olib kirilgan asbob-uskunalar importi tahlil qilinmagan. Ularni mahalliyashtirishdan hech kim manfaatdor emas, bu masala bilan hech kim astoydil shug'ullanmayapti“ [3]. Shuningdek, milliy valyutaning qadrsizlanish

sur‘atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga, natijada xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning investitsion faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mahalliyashtirish dasturlarida belgilangan vazifalarning bajarilmasligi oziq-ovqat sanoati korxonalarining importga bog‘liqlik darajasini pasaytirish imkonini bermaydi. Bunday sharoitda milliy valyutaning qadrsizlanish jarayonlarini davom etayotganligi va uning qadrsizlanish sur‘atini yuqori ekanligi oziq-ovqat mahsulotlari baholarini pasaytirish imkonini bermaydi. Chunki, importga bo‘lgan yuqori talabni saqlanib turishi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif muvozanatiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi. Kichik biznes sub‘yektlarini kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy risklarning darajalari yuqoriligicha qolmoqda. Moliyaviy risklar deganda kichik biznes sub‘yektini loyihani amalga oshiruvchi loyiha tashabbuskori va benefitsiar sifatida mablag‘larini yetishmasligi, uning moliyaviy holatini yomonlashishi natijasida zarar ko‘rish xavfi tushuniladi.

Milliy valyutaning keskin qadrsizlanishi natijasida benefitsiarning milliy valyutadagi mablag‘lari xorijdan import qilinadigan uskunalarning to‘lovini amalga oshirish uchun etarli bo‘lmay qoladi. Ayniqsa, milliy valyutasi uzoq yillardan buyon qadrsizlanib kelayotgan O‘zbekiston uchun moliyaviy risklar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, respublikamiz iqtisodiyotiga jalb qilingan xalqaro kreditlarning mutlaq asosiy qismi (70 foizdan ortig‘i) suzuvchi foiz stavkalarida jalb qilingan kreditlardir.

Xorijiy banklar, shu jumladan, transmilliy banklari har doim suzuvchi foiz stavkasidagi xalqaro kreditlarni berishdan manfaatdordirlar. Buning sababi shundaki, xalqaro kreditlar suzuvchi stavkada berilganda, ularning bozor bahosi qanday o‘zgarishidan qat‘iy nazar, kreditni bergan bank oladigan spread (marja) o‘zgarmay qoladi. Xalqaro kreditni oluvchilar esa, har doim xalqaro kreditni o‘zgarmaydigan (qat‘iy belgilangan) stavkada olishdan manfaatdor bo‘ladi. Chunki, xalqaro kredit o‘zgarmaydigan foiz stavkasida olinganida, ularning bozor bahosi qanday o‘zgarishidan qat‘iy nazar, kreditni olingan paytdagi stavkada to‘laydi. Shu o‘rinda e‘tirof etish joizki, loyiha tashabbuskori bilan bog‘liq bo‘lgan risklarga quyidagi turdagi risklar kiradi:

- \* loyiha tashabbuskorining reputatsiyasi bilan bog‘liq;
- \* loyiha tashabbuskorining tajribasi va malakasi bilan bog‘liq;
- \* loyiha tashabbuskorining aksiyadorlar bilan munosabati bilan bog‘liq;
- \* loyiha tashabbuskorining moliyaviy imkoniyatlari bilan bog‘liq.

Loyiha tashabbuskorining reputatsiyasini yomonlashishi uning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni jalb qilish imkoniyatini pasaytiradi. Xususan, uning tijorat banklaridan kreditlar olishi qiyinlashadi, ya‘ni, tijorat banklari reputatsiyasi yomonlashgan mijozlarga kredit berishdan manfaatdor emaslar. Ayniqsa, Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazil-2 standartida taklif qilingan standartlashgan yondashuvga ko‘ra, kredit reytingi past bo‘lgan mijozlarga berilgan kreditlarning risk darajasi yuqori bo‘ladi [4].

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси 22.12.2022, <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” PF-4947-sonli Farmoni

3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 12-b.

4. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

5. “Baraka Servis” xususiy korxonasining Buxgalteriya balansi (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to'g'risida”gi hisoboti” (2-shakl) ma'lumotlari

6. “XON” KKning Buxgalteriya (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to'g'risida”gi hisoboti” (2-shakl) ma'lumotlari

7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг пул-кредит сиёсати шархи. - Тошкент-2019-2022 йй.

8. Kh, O. N. (2021). Prospects for the transition of domestic enterprises to international financial reporting standards (IFRS). *Ceteris Paribus*, (2), 14-17.

9. Олимова, Н. Х., & Джурабаев, У. Б. (2020). Мамлакатимизда инновацион фаолиятнинг ривожланиши ва реал сектор корхоналарининг технологик инновацияларга бўлган талабини белгилловчи омиллар таҳлили. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 445-449).

10. Олимова, Н., & Саидмахмудов, С. (2023). Факторы эффективности деятельности промышленных предприятий и пути ее повышения. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(3), 44-48.

11. Олимова, Н. Х., & Каримов, О. О. Ў. (2022). Корхона инновацион фаолиятини молиялаштириш самарадорлигини баҳолаш усуллари. *Academic research in educational sciences*, 4(1), 11-21.